

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET  
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIV-AMALIY ANJUMAN**



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ  
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

**МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE  
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

**PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE**



**ANDIJON-2024. 10-IYUN**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET  
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ  
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE  
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”  
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL  
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

**Mas‘ul muharrir(lar):**

**f.f.n., prof. S.O.Solijonov**

**Tahrir hay‘ati:**

**f.f.d.prof. D.A.Rustamov**  
**f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev**  
**PhD. dots. M.A.Qurbonov**  
**f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov**  
**f.f.d.prof. V.A.Vositov**  
**PhD. dots. M.G‘.Xoshimov**  
**p.f.n. prof. Sh.S.Alimov**  
**PhD. G.M.Ibragimova**  
**PhD. Q.Umrzakov**  
**kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov**  
**kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova**

**Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:**

**A.A.Xomidov**

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

***To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.***

***Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil***

ayniqsa uning hissiy va intellektual sohalariga ta'sir qiladi. Shunga qaramay, shuni ta'kidlash kerakki, agar bola kattalarning gaplashayotganini eshitsa yoki ularga hamrohlik qilish uchun tasvirlarsiz so'zlarni ishlatasa, aqliy faoliyat sodir bo'lmaydi. Tilni o'rganish va nutqni rivojlantirishning ahamiyatini ko'rsatish uchun til va nutqning rollarini o'rganish juda muhimdir. I.A. Zimnaya psixologlar, pedagoglar va tilshunoslar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida shartli ravishda tilning uch xil funksional tomonlarini (keng ma'noda) belgilaydi. Bu xususiyatlar insonning ijtimoiy, intellektual va shaxsiy funktsiyalarini bajarishga imkon beradi. Ijtimoiy-tarixiy tajribaning umumbashariy tarkibiy qismlaridan tashqari, til ma'lum bir mamlakat madaniyatiga xos jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, milliy-madaniy xususiyat - tilning qo'shimcha funktsiyasi - A. A. Leontiev tomonidan ajralib turadi. Ona tilining milliy fazilatlarini, uning milliy o'zlikni shakllantirishdagi vazifasi K. D. Ushinskiy asarlarida betakror bayon etilgan.

#### Foydalangan adabiyotlar

1. Аброр Қўшназаров. Шайтонни тутган Шертой. – Тошкент: Global books, 2020. – Б. 107.
2. Анвар Обиджон. Мўттивоймисан, Миттивоймисан? Қисса. – Тошкент: “Шарк” нашриёти-матбаа бош тахририяти, 2019. – Б. 50.
3. Кисленко Б.Я. Психологические особенности усвоения правил обращения с предметами: Автореф. дис. канд. пс. наук. – М., 1981. – 17 с.
4. Мишина Т.Н. Семейная психотерапия и динамика образа семьи // Психогигиена и психопрофилактика. – Л., 1983. – С. 21-26.

#### MURIEL SPARK BADIY NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

M.Z.Djalaldinova,  
Andijan state institute of foreign languages,  
PhD candidate, Department of Theoretical aspects of English

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Buyuk Britaniya adabiyotining yorqin vakilasi, Myuriyel Spark badiiy nutqining o'ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi. U ikkinchi jahon urishidan keyingi, postmodern adabiyotiga boshqalarga o'xshamagan yo'nalish va uslubda ijod qilib, postmodern adabiyotining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan.

**Kalit so'z va iboralar:** postmodern, urushdan keyingi, Muriel Spark, romanlar, nuanslar, hazil, madaniy kontekst, ishoralar, ko'p nuqtai nazarlar, parcha-parcha hikoyalar, metafiksatsiya, o'z-o'zini aks ettirish.

**Abstract.** The article discusses the uniqueness of the artistic speech of the representative of the British literature, Muriel Spark whose literary work goes beyond boundaries. With postmodern style and techniques of writing, she considerable contributed to the development of the post war period in the British literature.

**Keywords and phrases:** postmodern, post war, Muriel Spark, Novels, Nuances, Humor, Cultural Context, Allusions, Multiple Perspectives, Fragmented Narratives, Metafiction, Self-Reflexivity.

Kundalik turmush tarzida ko‘p matnlarni bir ko‘rishda, ma‘lumot olish uchun masalan, reklama, e‘lonlarni, yoki ma‘lum mavzu doirasida bilim ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida, fanlar kesimidagi ahborotlarni tahlil qilish yoki estetik zavq beruvchi badiiy adabiyotga qiziqqanida o‘qiydi. Tabiiyki, bu jarayonlarda har bir o‘qilgan matnning o‘z vazifasi bor. Shunday ekan, maqsadiga ko‘ra matnlarning ham turli shakllari mavjud. Mashxur rus tilshunosi Fedorov ta‘kidlaganidek: *“tilning estetik vazifasi mavjud bo‘lib, uning namoyon bo‘lish darajasi matn tuzuvchisining maqsadiga bog‘liq holda farqlanadi. Ilmiy hamda badiiy matn quyidagicha taqqoslanadi: Ilmiy matn va badiiy matn mualliflarining maqsadlari bir-biridan tamoman farq qiladi. Ilmiy matn muallifi asosan axborot berish, bildirish, tegishli qoidalarni ishlab chiqish va umumlashtirish, ilmiy yangiliklarni isbotlash, dalillash, o‘quvchi yoki tinglovchini muayyan qonuniyatlardan xabardor qilishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, badiiy matn muallifi esa tinglovchi yoki o‘quvchining his-tuyg‘ulariga ta‘sir qilish, uning ruhiy olamini zabt etishga intiladi. Shu sababli ilmiy matnda fikrning mantiqiy, aniq va ikki xil talqinga yo‘l bermaydigan ifodasi talab qilinsa, badiiy matnda esa fikrning obrazli va ko‘p ma‘noli ifodasi ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi”*. [1:11]

Buyuk Britaniyalik adabiy tanqidchi Matthew Arnoldning mashhur asari “Culture and Anarchy” (1869) badiiy nutqning ahamiyati, o‘ziga xos xususiyatlari haqida muhokamalar taqdim etadi. Bu asarda Arnold adabiyotda adabiy tilning xususiyatlarini tahlil qilib, badiiy nutq ijtimoiy va siyosiy tartibni o‘zgartirishda muhim vosita ekanligini ilgari suradi. Uning fikricha: *“aqliy va mantiqiy rivojlanishga asoslangan madaniyat anarxiyaga qarshi kuchli qarshilik ko‘rsata oladi. Go‘zallikka, haqiqat va ezgulikka mehr-muhabbatni tarbiyalash orqali insonlar o‘z nafslarini ortda qoldirib, yanada barkamol, ma‘rifatli jamiyat sari harakat qilishlari mumkin.”* [2: 124]

Demak, yozuvchilar badiiy nutqni rivojlantirish omillarini nazarda tutgan holda turli obrazlar yaratadi, shu orqali madaniyat va nutqni bir biriga chambarchas bog‘laydi.

Ma‘lumki, barcha nutq uslublari kommunikativ vazifani bajaradi, ya‘ni kerakli axborotni yetkazadi, lekin ba‘zi nutq uslublari muloqot qilish vazifasidan tashqari ekspresiv faoliyatga ham ega. Tilshunos, M. Yuldashev badiiy matnning nobadiiy matndan farqini quyidagicha izohlaydi: *“badiiy matnda muallifning o‘quvchi yoki kitobxonga estetik ta‘sir ko‘rsatish maqsadi asosiy o‘rinda turadi, nobadiiy matnda esa muallifning asosiy maqsadi o‘quvchi yoki kitobxonga kommunikativ ta‘sir ko‘rsatishdir. Nobadiiy matnda muayyan axborotning mazmuni va uning ifodasi asosiy ahamiyatga ega bo‘lsa, badiiy matnda shu axborot orqali aytilmoqchi bo‘lgan fikr-g‘oyaning estetik ta‘sirli ifodasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi”*. [3:56]

Shunday qilib, badiiy matn nobadiiy matndan avvalo estetik ta‘sirchanligi bilan ajralib turadi. Garchi barcha matnlar kommunikativ vazifa bajarsalar-da, axborotni qanday yetkazishi, til vositalarining qo‘llanish ko‘lamiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi.

Badiiy asarning tili adabiy tilning o‘ziga xos shaklidir. Badiiy uslubda adabiy tilning rivojlanishi va shakllanishi uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Professor P.Qodirov shunday deydi: *“Tirik jonlarning o‘sishi uchun toza havoning ahamiyati qanchalik muhim bo‘lsa, adabiyotimizning taraqqiyoti uchun chinakam badiiy tilning ahamiyati ham shunchalik katta”*. [4:140] Haqiqatan ham, badiiy nutqda so‘z turli jilolari bilan tabiat va jamiyatdagi voqelikni to‘liq tasvirlaydi. Badiiy nutq xalq tilining o‘ziga xos ifodali shaklidir.

Muriel Spark nasridagi badiiy nutqning o‘ziga xosligini belgilovchi bir necha jihatlar keltirilgan:

1. Yozuvchi asarlarida kinoyaviy, quruq hazil muhim o‘rin tutadi. U ko‘pincha qahramonlarining zaif tomonlarini ochib berish uchun ularga nisbatan kinoyadan foydalangan holda yondashadi. Bu uslub o‘quvchilarga hikoyaning mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi.

2. Sparkning yozuv uslubi soddaligi, aniqligi bilan ajralib turadi. U ko‘p so‘z ishlatmasdan ham o‘z fikrini aniq va ta’sirli ifoda eta oladi. Bu minimalizm uning hikoyalariga kuchli ta’sir, estetik go‘zallik bag‘ishlaydi.

3. Yozuvchi qahramonlarining ichki dunyosini chuqur o‘rganadi. Ularning ichki his-tuyg‘ulari, fikrlash tarzini tasvirlash orqali o‘quvchiga qahramonlarning psixologiyasini yaqqol ochib beradi. Bu, ayniqsa, ayol qahramonlar uchun muhimdir, chunki Spark ularning ichki murakkabliklarini va tashqi dunyo bilan aloqalarini ko‘rsatadi.

4. Spark ko‘pincha o‘z hikoyalarida tuzilish bilan tajriba o‘tkazadi. Masalan, u retrospektiv hikoya qilish usulini qo‘llashi yoki voqealarni bir necha nuqtai nazardan bayon etishi mumkin. Bu struktura o‘quvchini asarning mohiyatiga chuqurroq kirib borishga majbur qiladi.

5. Muallifning har bir so‘zi, jumlası yuqori darajada kontsentratsiyalangan bo‘lib, hikoyaning har bir detali muhim, mazmunli hisoblanadi. Bu uslub o‘quvchini asarning har bir qismini e’tibor bilan o‘qishga undaydi.

6. Sparkning ko‘plab asarlarida din va axloqiy muammolar muhim rol o‘ynaydi. U bu mavzularni tadqiq qilib, insonning ma’naviy boyligi va axloqiy qarorlarini o‘rganadi.

Avtorning nasri, yuqoridagi jihatlar orqali, o‘quvchilarni chuqur o‘ylashga va inson tabiatining murakkabliklarini anglashga undaydi. Uning badiiy nutqining o‘ziga xosligi va mahorati, asarlarining zamonaviy adabiyotda o‘ziga xos va qadrli bo‘lishiga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Федоров А.И (, 1985.) Образня речь. –Новосибирск: Наука –С. 11
2. Matthew, A (2009) Culture and Anarchy. Oxford University Press
3. Ёўлдошев М. ( 2007)Бадий матн ва унинг лингвопоетик тахлили асослари. – Тошкент
4. Қодиров П. (1977) Бадий тил муаммолари. Инкилоб ва адабиёт. –Т. Фан. 140-б

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

	<b>Radjabova Gulnoza Giyosiddinovna</b>	
51.	<b>FONOSTILISTIK O‘ZGARISHLARNI BELGILOVCHI EKSTRALINGVISTIK OMILLAR</b> Mamasadikova Mukaddasoy Qaxramonbek qizi	176
52.	<b>RAVISH SO‘Z TURKUMIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR</b> Rabbimova Gulchehra Toyir qizi	179
53.	<b>TARJIMADA IBORALARNING EKVIVALNETLIGI</b> Muxayyoxon Axmedova	182
54.	<b>IDIOMS IN PHRASEOLOGY</b> Nazarova Ziyoda Kattayevna	183
55.	<b>ILOVA KONSTRUKSIYALARDA GAP BO‘LAKLARINING BAJARIB KELADIGAN VAZIFALARI</b> Hojiyeva Nafosatxon Ilhom qizi	185
56.	<b>ILM-FANDA TERMINLAR OLAMI</b> Ismanova Odinaxon Urunbayevna	187
57.	<b>THE IMPORTANCE OF INTRODUCING UZBEK NATIONAL CULTURE TO OTHER NATIONS IN TRANSLATION OF LITERARY WORKS</b> O‘.M.Nortoeva, Sobia Bhutto	189
58.	<b>IKKILAMCHI NOMINATSIYA ORQALI PAYDO BO‘LGAN TERMINLAR</b> Tursunova Nodirabegim Fayzullo qizi	191
59.	<b>M. FUKO INTERDISKURSIVLIK KATEGORIYASINING ASOSCHILARI SIFATIDA</b> Nodirabegim Haydarova Ahtamjon qizi	195
60.	<b>O‘ZBEK TILIDA MOTAM SEMANTIK MAYDONIGA KIRUVCHI SO‘ZLARNING SINONIMIK MUNOSABATI</b> Mushtariybonu Jaloliddinova Jamoliddin qizi	197
61.	<b>BOLA NUTQI RIVOJLANISHNING UMUMIY SHAKLLARI</b> Jo‘rayeva Dilnavoz	200
62.	<b>MURIEL SPARK BADIY NUTQINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b> M.Z.Djalaldinova	203
63.	<b>POLIKOMPONENTLI QO‘SHMA GAPLAR TARJIMASIDA TRANSFORMATSIYALAR</b> A.A.Latibjonov	206
64.	<b>THE NATURE OF PARTS OF SPEECH</b> Abdullayev Ikramjon Xashimdjanoich Lindawati Mustikasari	208
65.	<b>THE ROLE OF CONNOTATION IN WORLD LINGUISTICS</b> Mirzaabdullayeva Mahliyo Khosiljon qizi	211
66.	<b>SOME REFLECTIONS ON THE PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING MENTAL ABILITIES OF THE MAN IN THE SYSTEM OF LANGUAGES</b> Toshtemirov Elyor Nuraliyevich Turgunova Erkinoy Ergashevna	214
67.	<b>LINGUACULTURAL EXPRESSION OF STYLISTIC DEVICES IN THE TRANSLATIONS OF THE NOVEL “DAYS GONE BY” BY A. QADIRI</b> Gaybullayeva Sevara Shukhrat qizi	217